



RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Masharipova Sevinch

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining
boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-D kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14898077>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Fevral 2025 yil
Ma'qullandi: 15-Fevral 2025 yil
Nashr qilindi: 20-Fevral 2025 yil

KEY WORDS

Inklyuziv ta'lim, kompetensiya, konsepsiya, nutq, ta'lim.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'limga muhtojligi bo'lgan bolalarning nutqiy malakalarini shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati haqida so'z boradi.

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida 2017-yil sentabr oyida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan taklif: "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi Xalqaro Konvensiya loyihasi ishlab chiqildi. "Yoshlar huquqlari bu eng avvalo birinchi navbatda, ularning tinch va sog'lom yashash hamda ta'lim olishga bo'lgan huquqlari hisoblanadi. ...unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning barkamol bo'lib voyaga yetishi, sifatli va mukammal ta'lim olishini ta'minlash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi".

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ayni sohada bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori bu borada amalga oshirilishi mo'ljallangan sa'y-harakatlar uchun huquqiy asos bo'ldi. Mazkur qaror bilan, 2020-2025 yillar uchun xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi", shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi.

Nutq o'stirish ona tili ta'limiga aniq amaliy yo'nalish beradi va bolalarga to'g'ri o'qish, o'qiganlarini ravon gapirish va yozishga o'rgatadi; ona tili va o'qishdan o'quvchilarning yosh hamda kasallik oqibatida sodir bo'lgan xususiyatlari va saviyasini hisobga olgan holda boshlang'ich bilim berishi, shu asosda nutqini boyitish, undagi nuqsonlarni tuzatish, boshqalar nutqini e'tibor bilan eshita olish hamda kitob o'qishga qiziqish uyg'otishga yo'naltirilishi zarur.

Aqli zaif bolalar og'zaki nutqidagi barcha nuqsonlar ularni o'qitish jarayonida qiyinchilik tug'diradi, ayniqsa yozma nutqni o'zlashtirish, savod o'rganishi qiyin. Lekin ilg'or o'qituvchi-defektologlarning tajribalari shuni ko'rsatdiki, ta'limning maxsus tashkil etilgan logoped bilan hamkorlikdagi ish jarayoni yordamida aqli zaif o'quvchilarning og'zaki nutqidagi kamchiliklarni tuzatish, nutq madaniyatini

tarbiyalash, yozma nutqini o‘stirish, umumiy shaxs rivojlanishini yanada ham yaxshiroq yo‘lga qo‘yish mumkin. Lekin bu jarayon bugungi kunda ma‘lum miqdorda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga yuklatilgan vazifa hisoblanadi. Aynan bunday bolalar bilan ishlashishda o‘qituvchi ahamiyat berishi kerak bo‘lgan muhim narsalardan biri bu boladagi psixologik jarayonlar hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqini shakllantirishda turli xil ko‘rgazmali vositalardan foydalanish bilan bir qatorda animatsion materiallardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Ya‘ni bunda o‘quvchilar o‘zlari ko‘rayotgan qandaydir predmetning harakatlarini og‘zaki yoki yozma turda bayon qiladi.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning aynan nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning yana bir muhim omillaridan biri ular ning jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishidir. Bu jarayon bolalarda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dastlab, inklyuziv ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar boshlang‘ich sinfga kelganlarida o‘qituvchi ular bilan individual tarzda shug‘ullanishni boshlashi talab etiladi. Alifbegacha davrda og‘zaki nutqning funksional sistemasi o‘rganiladi va takomillashtiriladi. Bolalar bilan sabzavot, meva, kiyim, o‘quv qurollari, transport va boshqa mavzular bo‘yicha suhbatlar uyushtiriladi, analiz-sintez malakalari rivojlantirib boriladi. Eshitish analizatorini rivojlantirish ishlari ichki yo‘nalishda: nutqdan tashqari tovushlar asosida va nutq tovushlari-fonemalar asosida eshitish diqqati, xotirasi, fonematik o‘quvi rivojlantiriladi.

Maxsus muassasalarda o‘z fikrini og‘zaki ifodalay olmasligini his etgan o‘quvchi yozma shaklda bayon etishni bilishi kerak. Buning uchun o‘quvchilarni o‘z fikrini og‘zaki, yozma bayon etishga o‘rgatish amaliy nutqiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish asosida amalga oshiriladi. Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda so‘zlashuv (og‘zaki, yozma) nutqni shakllantirish yuzasidan dars va mashg‘ulotlarda muayyan tizimdagi mashqlar asosida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati tashkil etiladi, didaktik vositalarning barcha turlarini nutqiy jarayonga moslay olish talab etiladi. Nutqiy materiallarning amaliy egallanishini ta‘minlash uchun maxsus sodir etilgan muammoli nutqqa (gapirish, yozib tushuntirishga) ehtiyojni tug‘diruvchi vaziyatlar oldindan rejalashtiriladi. Bunda nutqiy materiallar fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarida, rejalashtirishlarda oldindan belgilangan bo‘ladi, ya‘ni korreksion-pedagogik jarayon muayyan tizim asosida amalga oshiriladi.

O‘quvchilarning nutqiy axborotni qabul qilish va uzatish imkoniyatini rivojlantirish, o‘z ona tilida sog‘lom tengqurlari kabi so‘zlashish, fikr almashishini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-korreksion jarayonni yagona tizim asosida amalga oshirish orqali takomillashtirilmogda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil sentabr oyida 72-sessiyasidagi nutqidan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. V.S.Rahmanova. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar ta‘lim olayotgan yordamchi mehnat ta‘limi maktablari uchun yangi tahrirdagi ona tili, o‘qish, nutq o‘stirish o‘quv dasturi. Toshkent - “Asr matbuot” 2007.

4. B.Sh.Mamarasulov. Boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'lim.
5. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi. Toshkent – 2016.
6. F.U.Qodirova, D.A.Pulatov. Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika – darslik.



INNOVATIVE
ACADEMY